XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-21-113-2-0-K/25 Buxoro viloyati

Buxoro viloyati boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Soliq va budjet siyosatining 2026-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412, 420, 422, 429 va 437-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soligʻini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-6121-son, 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy oʻsish va aholi bandligini taʼminlashning yangi tizimini yoʻlga qoʻyish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va masʼuliyatini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-223-son Farmonlariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat soliq boshqarmasi boshligʻi D.Yuldashevning Buxoro viloyati boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutlaq miqdor summalari toʻgʻrisidagi axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. “Soliq va budjet siyosatining 2026-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunida 2026-yilda Buxoro viloyati boʻyicha yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlarining bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun 42,4 mln.soʻm, jismoniy shaxslar yerlarining 1 kv.m

uchun bazaviy soliq stavkasi 377 soʻm hamda yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli boʻlgan, yashashga moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda 1 kv.metr uchun eng kam qiymati tumanlarda 1 390 000 soʻm etib belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning stavkalari qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha 2026-yilda Buxoro viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **1-ilovaga;**

jismoniy shaxslarga tegishli qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha 2026-yilda Buxoro viloyati uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **2- ilovaga;**

yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli boʻlgan, yashashga moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **3-ilovaga;**

2026-yil uchun qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **4-ilovaga;**

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **5-ilovaga;**

2026-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, koʻcha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega ekanligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

5. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) hududiy soliq organlari bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazorati o‘rnatilishini;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatilishini ta’minlasin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot berib borsin.

6. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2026-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini ko‘rib chiqib, tegishli qarorlarni 2026-yil 10-yanvarga qadar hududlardagi soliq organlariga taqdim etish tavsiya etilsin.

7. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Buxoro viloyati bo‘yicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-025-2-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Viloyat hokimligi axborot xizmati, “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov) mazkur qarorning gazeta va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini ta’minlasin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi **ASHUROV JAMOL RAJABBOYEVICH**

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-113-2-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha 2026-yilda Buxoro viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer soligʻining bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T.R	Shaharlar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari uchun yer soligʻi stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, ming soʻmda)
1	Buxoro sh.	1,87	79 288,0
2	Kogon sh.	1,22	51 728,0
3	Olot t.	0,85	36 040,0
4	Buxoro t.	0,95	40 280,0
5	Vobkent t.	0,85	36 040,0
6	Gʻijduvon t.	1,18	50 032,0
7	Jondor t.	0,85	36 040,0
8	Kogon t.	0,99	41 976,0
9	Qorakoʻl t.	0,95	40 280,0
10	Peshku t.	0,85	36 040,0
11	Romitan t.	0,95	40 280,0
12	Shofirkon t.	0,85	36 040,0
13	Q-bozor t.	1,03	43 672,0

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-113-2-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallagan yerlardan tashqari) 2026-yilda Buxoro viloyati uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T.R	Shaharlar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so'mda)
1	Buxoro sh.	1,71	645
2	Kogon sh.	1,09	411
3	Olot t.	0,86	324
4	Buxoro t.	0,95	358
5	Vobkent t.	0,86	324
6	G'ijduvon t.	1,12	422
7	Jondor t.	0,86	324
8	Kogon t.	1,01	381
9	Qorako'l t.	0,95	358
10	Peshku t.	0,86	324
11	Romitan t.	0,97	366
12	Shofirkon t.	0,86	324
13	Q-bozor t.	1,05	396

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-113-2-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli boʻlgan, yashashga moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari uchun mol-mulk soligʻini hisoblashda 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T.R	Tumanlar nomi	Koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazuvchi organlarda roʻyxatdan oʻtkazilishi lozim boʻlgan binolar va inshootlarning 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbattan qoʻllaniladigan (Yirik soliq toʻlovchilar boʻyicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli subyektlardan tashqari)	
		Koeffitsent miqdori	Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, soʻmda)
1	Olot t.	0,800	1 112 000
2	Buxoro t.	1,000	1 390 000
3	Vobkent t.	0,800	1 112 000
4	Gʻijduvon t.	1,000	1 390 000
5	Jondor t.	0,800	1 112 000
6	Kogon t.	1,000	1 390 000
7	Qorakoʻl t.	0,830	1 153 700
8	Peshku t.	0,800	1 112 000
9	Romitan t.	1,000	1 390 000
10	Shofirkon t.	0,800	1 112 000
11	Q-bozor t.	0,960	1 334 400

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-113-2-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil uchun qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T.R	**Shaharlar va tumanlar nomi**	Soliq kodeksi boʻyicha 2026-yil uchun belgilangan stavka foizda	Koeffitsent miqdori	Koeffitsent qoʻllanilganidan keyingi soliq stavkasi foizda
1	Buxoro sh.	0,95	1,00	0,95
2	Kogon sh.	0,95	1,00	0,95
3	Olot t.	0,95	1,00	0,95
4	Buxoro t.	0,95	1,00	0,95
5	Vobkent t.	0,95	1,00	0,95
6	Gʻijduvon t.	0,95	1,00	0,95
7	Jondor t.	0,95	1,00	0,95
8	Kogon t.	0,95	1,00	0,95
9	Qorakoʻl t.	0,95	1,00	0,95
10	Peshku t.	0,95	1,00	0,95
11	Romitan t.	0,95	1,00	0,95
12	Shofirkon t.	0,95	1,00	0,95
13	Q-bozor t.	0,95	1,00	0,95

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-113-2-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T.R	Hudud nomi	Bir oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)
1	Buxoro sh.	1,50	21 750	1,50	42 600
2	Kogon sh.	1,30	7 670	1,30	15 340
3	Olot t.	1,20	7 080	1,20	14 160
4	Buxoro t.	1,30	7 670	1,30	15 340
5	Vobkent t.	1,20	7 080	1,20	14 160
6	G‘ijduvon t.	1,30	7 670	1,30	15 340
7	Jondor t.	1,20	7 080	1,20	14 160
8	Kogon t.	1,20	7 080	1,20	14 160
9	Qorako‘l t.	1,20	7 080	1,20	14 160
10	Peshku t.	1,20	7 080	1,20	14 160
11	Romitan t.	1,30	7 670	1,30	15 340
12	Shofirkon t.	1,20	7 080	1,20	14 160
13	Q-bozor t.	1,20	7 080	1,20	14 160

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-113-2-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

2026-yil koeffitsiyent miqdori						
T.R	**Tuman va shaharlar nomi**	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liqbo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.mdan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Buxoro sh.	1,17	1,19	1,19	1,19	1
2	Kogon sh.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
3	Olot t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
4	Buxoro t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
5	Vobkent t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
6	G‘ijduvon t.	1,13	1,17	1,17	1,17	1
7	Jondor t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
8	Kogon t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
9	Qorako‘l t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
10	Peshku t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
11	Romitan t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
12	Shofirkon t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1
13	Q-bozor t.	1,13	1,15	1,15	1,15	1